



**GOETHE  
INSTITUT**

Sprache. Kultur. Deutschland.

Haus der  
Kulturen der Welt  
**HKW**

## MATBUOT XABARI

### **Destination: Tashkent - Toshkent va Berlin shaharlariagi kino va diskurs festivali**

**Toshkent, 2024-yil 9-sentabr** – O'zbekistondagi Gyote Instituti va Berlindagi Jahon madaniyatları uyi (HKW) Sizni 2024-yil 26-29-sentabr kunlari bo'lib o'tadigan „Destination: Tashkent“ kino va diskurs festivalining birinchi qismiga taklif etadi. Ochilish va taniqli kinorejissyor Ali Hamroev bilan suhbat 26 sentabr kuni soat 18:30 da Toshkentdagi Gyote-Institutida bo'lib o'tadi.

Afrika, Osiyo va Lotin Amerikasi kinolarining tarixiy Toshkent kinofestivalidan (1968-1988) ilhomlangan mazkur festivalda O'zbekiston va Markaziy Osiyo kinoijodkorlarining zamonaviy asarlari bilan bir qatorda o'sha paytda asl dasturda namoyish etilgan filmlar tanlovi taqdim etiladi. Filmlar inglez va o'zbek tillarida jonli dublyaj yoki subtitrlar bilan namoyish etiladi. Dastur O'zbekistondagi Gyote-Instituti va HKW kino amaliyotlari bo'yicha kuratori Chan Sungu tomonidan qisqa metrajli filmlar seriyasini boshqaradigan mahalliy tashabbuslar bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan.

Film namoyishlaridan tashqari festivalda munozara davralari, jamoat tadbirlari va mahorat darslari ham o'tkaziladi. Xalqaro kinoijodkorlar, kinotanqidchilar va olimlar Toshkent kinofestivalining tarixiy ahamiyati va yosh kino ijodkorlarining istiqbollarini muhokama qiladilar. Dasturlar o'rtaida almashuv va muloqot qilish uchun ko'plab imkoniyatlar mavjud, jumladan, jamoaviy nonushta, musiqali ijtimoiy kechalar va Aleksandr Federov (Toshkent modernizmi) bilan Toshkentdagi festivalning tarixiy joylariga shahar sayohati.

2024-yil 20-sentabrdan 14-oktabrgacha "Ilhom" teatridda arxiv materiallari va artefaktlari ko'rgazmasi ham festival tarixini jonlantiradi. Ko'rgazma ochilishi 2024-yil 20-sentabr kuni soat 18:00 da bo'lib o'tadi. Film va diskurs festivalining ikkinchi qismi 2024-yil 27-noyabrdan 1-dekabrgacha Berlindagi Jahon madaniyatları uyida va boshqa joylarda bo'lib o'tadi.

Festival Berlindagi Jahon madaniyatları uyi (HKW), O'zbekistondagi Gyote-Instituti hamda MOC ijodiy tashkiloti, "Ilhom" teatri kabi mahalliy madaniyat xodimlari hamkorligida hamda Davlat arxivi ko'magida tashkil etilmoqda.

Barcha tadbirlar jamoatchilik uchun ochiq. Iltimos, quyidagi el.manzil orqali mehmonlar ro'yxatida ro'yxatdan o'ting: [katharina.schenke.extern@goethe.de](mailto:katharina.schenke.extern@goethe.de)

#### **Muhim sanalar:**

**Toshkent kino va diskurs festivali:** 2024 yil 26-29 sentyabr

**Kirish filmi namoyishi va ochilish:** 2024 yil 26 sentyabr, soat 18:30,  
O'zbekistondagi Gyote- Institutti

**"Ilhom" teatridagi ko'rgazma:** 2024-yil 20-sentabrdan 14-oktabrgacha  
Ochilish: 2024 yil 20 sentyabr, soat 18:00

**Berlindagi kino va diskurs festivali:** 2024 yil 27 noyabrdan 1 dekabrgacha

Qo'shimcha ma'lumot va bat afsil dastur:

HKW - Jahon madaniyatları uyi - veb sahifa

Gyote instituti O'zbekiston - veb sahifa

O'zbekistondagi Gyote-Institutining Telegram va Instagram kanallari

#### **Matbuot uchun aloqa:**

Gulnoza Bazarova,  
Jamoatchilik bilan  
ishlash xodimi

Goethe-Institut Taschkent  
Amir Temur ko'chasi 42,  
100000 Taschkent  
gulnoza.bazarova@goethe.de  
Tel.: (+99878) 1401494  
(+99878) 1401470